

**ILK O'RTA ASRLARDA EFTALIYLAR DAVLATINING O'ZBEK DAVLATCHILIK TARIXIDA
TUTGAN O'RNI**

G'ulomov Baxodir Ikrom o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zMPU

kechgi bo'lim Tarix fakulteti

401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Yakobjanov. J. J.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida tashkil topgan Eftaliylar davlati tashkil topishi, madaniyati va davlatchilik shakl shamoyillari haqida hamda ularning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kashovarz, kadivar, dehqon, tosh dahma, Abdel, Efhulit, Teral, Xetta, Hoytal, Vaxshunvar, Eftal, Peruz (Feruz)*

Аннотация: *В статье рассматриваются становление, культура и государственность государства эфталитов, сложившегося на территории Средней Азии в эпоху раннего средневековья, а также их роль в истории узбекской государственности.*

Абстрактный: *кашоварз, кадивар, дехкан, таш-дахма, Абдель, Эфхулит, Терал, Хеттал, Хойтал, Вахшунвар, Эфтал, Перуз (Феруз)*

Abstract: *This article discusses the formation, culture, and statehood of the Hephthalite state, which was formed in Central Asia in the early Middle Ages, as well as their role in the history of Uzbek statehood.*

Keywords: *kashovarz, kadivar, dehqon, tash dahma, Abdel, Efhulit, Teral, Hetta, Khoital, Vakhshunvar, Eftal, Peruz (Feruz)*

Tarix fanida eftaliylarning kelib chiqishi haqida hozirgacha yagona fikr mavjud emas. Bir qancha olimlarning, tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra eftaliylar mahalliy xalqlardan, boshqalari Xorazmdan, yana birlari esa massagetlarning yettita urug'i orasidagi yetakchi qabila bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Eftaliylar davri bo'yicha yozib qoldirilgan manbalar ko'pchilikni tashkil qilib, ular orasida asosiy manbalar sifatida rimlik tarixchi Ammian Marsellin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Priisk Paniyskiy (V asr), Prkopiyy Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr) hamda Zenob Glakning (VII-VIII asrlar) "Yunoncha yozilgan eftalit podshohlari tarixi" asarlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek arman tarixchisi Lazar Parbskiy (V asr). Favsto Buzanda (IV asr), Yegishey (V asr) asarlarida hamda "Vey-shu" (VI asr), "Tan-shu" (IX-X asrlar) kabi xitoy yilnomalarida ham eftaliylar to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Xitoy manbalari

esa, eftaliylar yuechjilarning bir tarmog'i yoki Kangyuy avlodlari sifatida talqin etiladi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra Eftaliylarning Vatani Baqtriya - Toxariston hududlari bo'lgan³⁵.

IV-VI asrlarda O'rta Osiyoga kelgan ko'chmanchi qabilalar ittifoqi asosida Eftaliylar davlati tashkil topdi. Eftaliylar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yunon, xitoy, arab va b. xalqlar manbalarida uchraydi. Ularda eftaliylar turli nomlar bilan atalgan. Jumladan, Kesariyskiyning yozishicha: "Eftaliylar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, O'z qonuniy (adolatli) davlatchiligiga egadir. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat meyorini saqlashda vizantiyalik va forslardan hech bir qolishmaydilar". Eftaliylar asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan, bir qismi chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda xususan Sharkiy Turkiston va O'rta Osiyo hududlarida ko'plab g'o'za ekilgan. O'rta Osiyo paxtasi Xitoyda ham mashxur bo'lgan. Toxariston va So'g'dda g'allachilik va bog'dorchilik rivojlangan. Tog'li hududlarda yashovchi aholi ko'proq yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor otlar ko'paytirilgan. Yerga egalik munosabatlarning tarkib topishi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining katta qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari "dehqonlar" qo'lida to'plana boshlagan. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin a'zolar zodagonlar asoratiga tushib, ularga tobe bo'lishgan. Xo'jalik yuritishda renta-soliq tizimi keng qo'llangan. Eftalitlar davrida dehqonlarga yollanib ishlashga majbur bo'lgan kishilar "kashovarlar", yeriga ega bo'lgan erkin kishilar "kadivarlar" deb atalgan. Jamiyatda yer egaligi munosabatlari shakllana boshlagan bo'lsa-da (quldorlik tuzumi va xatto ibtidoiy jamiyatning qoldiqlari ham saqlanib qolgan) qul mehnatidan foydalanish davom etgan. Zodagonlar jamiyatda cheklanmagan huquqlarga ega bo'lishgan. Zodagon vafot etsa maxsus tayyorlangan tosh dahma (maqbara) ga, qoida bo'yicha xotini, qullari va ulfatlari ham birgalikda ko'milgan. Bu jamiyatda sinfiy tabaqalanish kuchayganidan dalolat beradi³⁶. Kushon davlati inqirozidan keyin o'lkada mustaqil mulkdorlar paydo bo'lgan. Ular Buxoroda Kofiar yunonlarda "Abdel", Hindlarda "Xuur yokosettar, Xitoy manbalarida eftaliylar turklar manbalarida "Efhulit", arman yozuvlarida "Teral" yoki "Xettal", arab va forschada "Xoytal" yoki vizantiyalik tarixchi Prokopiyy Kesaqaylskiy ularning kelib chiqishini "xunlar vohasidan Orol dengizi bo'ylariga kelgan "xunolar bilan aralashib ketgan sak massaget qabilalarining bilan bog'laydi. Aksariyat olimlar esa eftaliylarni miloddan avvalgi I milodiy IV asrda Yettisuv va Ili avlodlaridir, degan fikrni bildiradilar.

Yunon manbalarida yozilishicha eftaliylar yagona podsho boshqaruviga rivojlangan obod fuqarolik jamiyatiga ega bo'lishgan. Ichki va tashqi munosabatlarda adolat ular uchun asosiy mezon sanalgan. Eftallarda patriarxal boshqaruvi tartibi jihatlari ustun bo'lgan, Shuningdek eftallarning harbiy qo'shinlar eng qudratli qo'shinlardan hisoblangan. Eftaliylar davlati hududiy jihatdan O'rta Osiyoning asosiy qismi, Sharqiy Turkiston va Shimoliy

³⁵ Sagdullayev A, va bosliqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti- T., "Akademiya", 2000

³⁶ Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. Tuzuvchi Zohid A'lam. T. 2008

Hindiston hamda Gandzara viloyatlari ustidan hukmronlik qilgan Eftaliylar davlatidagi asosiy shaharlar So'g'diyona shaharlaridan iborat bo'lib, ular orasida Kushoniya (Kattaqo'rg'on yaqinida) Rivdad, Poykand, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha kabi shaharlar eftaliylar hukmronligi yillarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar sanalgan va iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan. V asrdan boshlab, Samarqand ham taraqqiy eta boshladi. Bu vaqtda davlatning siyosiy markazi Poykand shahri, hukmdorlar qarorgohi esa Varaxsha bo'lganligi taxmin qilinadi. Eftaliylar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Davlat hududlari Kushonlar davlatidan kengroq edi. Eftalilar davrida Eron sosoniylarining Sharqqa yurishlariga chek qo'yildi va sosoniylar uzoq yillar davomida Eftallarga tobe bo'lib keldilar.

Eftallar haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosan V asr o'rtalariga taalluqlidir. Eftaliylarda aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, qolganlari esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi asta-sekin mahalliy aholi bilan aralashib borib, o'troq hayot tarziga o'ta boshlagan. Jamiyatda "sara kishilar zodogonlarning mavqeyi kuchayib borgan va ular ko'proq shaharlarga kelib yashay boshlaganlar. Oddiy aholi va zodgonlar o'rtasidagi farq hamma tomonlama yaqqol ko'rinib turgan³⁷.

Eftaliylarda diniy e'tiqodlar xilma-xil bo'lgan. Eftaliylar hukmronlik qilgan hududlarda zardushtiylik va yaxudiylar jamoalari diniy e'tiqodlari ham mavjud bo'lgan. Eftaliylar qisman buddaviylikka e'tiqod qilsalarda, otashparastliklardagi ma'budalarga, but va sanamlarga sig'inishi ustunroq bo'lgan, har kuni tongda ular quyoshga sig'inganlar.

Eftaliylarda kushon yozuvining rivoj topgan shaklini ko'rish mumkin. Eftallar yozuvi o'zining shakli bilan qisman boshqalardan farq qilgan va so'zlar chapdan o'nga qarab o'qilgan. Alifbosida 25 ta xarf bo'lgan. Shuningdek So'g'da yozuvi va So'g'da tili ham ayrim hududlarda yetakchilik qilgan. O'rta Osiyoga bostirib kirgan eftaliylarning janub sari siljishlari Eron bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Taxminan 457 yilda eftaliylar Vaxshunvar Eftalon boshchiligida Chag'oniyon (Termizning shimolidagi yerlar), Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoda kuchli davlatga asos soldilar. Ko'pchilik olimlar Eftaliylar davlatining markazi Poykand (Boykent) yoki Balx bo'lgan degan fikrga kelishgan. Eftaliylar davlatining kuchayishidan tahlikaga tushgan Eron shohi Peruz (Feruz) eftaliylarga qarshi yurishlarda yengilgan. Eron sosoniylari uzoq vaqt eftaliylarga xiroj to'lab turishgan. Keyinchalik eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qashg'ar va Xutonni ham egallaganlar. Eftaliylar Kushon podsholigi hududlarini qo'lga kiritishib, sosoniylar davlatini tugatdilar va O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soldilar. Eftaliylar O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Buxoroda buxorudot, Chag'oniyonda chag'onaxudot, Vardanzeda vardanxudot, Shoshda-tudan, Sumarqand va Farg'onada-ixshid, Ustrushonada-afshin, Xorazmda-xorazmshoxlar deb atalgan. Mulkdorlarning qullar va qaram kishilardan tuzilgan harbiy drujinalari bo'lib, ular "chokarlar" deb atalgan. Markaziy hokimiyat ana shu mulk

³⁷ Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T., Fan, 1968

egalari uyushmasidan tashkil topgan. Eftalilar davrida ko'plab shahar-qal'alar qurilgan bo'lib, ulardan biri Poykentdir. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha "Buxoro shahridan qadimiyroqdir. Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'onlar Naxshab vohasidagi Zahhoki-Moron qal'asi, Buxorodagi Varaxsha qal'asi, Xorazmdagi Firqal'a, Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan Devori-qiyomat, Buxoro vohasidagi Kampir-Devor eftaliylarning o'ziga xos me'morchilik namunalari. Eftaliylar davrida qasrlar ikki qavatli, shifti tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan xonalardan iborat bo'lib, ular paxsa, xom va pishiqlik g'ishtlardan qurilgan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangli tasvirlar bilan bezatilgan³⁸. Jumladan, Bolaliktepa (Surxondaryo) dan topilgan suratlarda ziyofat jarayoni tasvirlanib, unda bashang kiyingan ayol va erkaklarning suratlari mahorat bilan ishlangan. Buxorxudotlarning qarorgohi-Varaxsha saroyi, Toshkent vohasidagi Oqtepa, Xorazm vohasidagi Fir qal'alari eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunasi. Bu davrda sug'orish kanallari ham qazilib, yangi yerlar o'zlashtirilgan. Sug'orish uslubi takomillashib, hozirgi Zog'ariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari bunyod etilgan.

Xulosa qilib shuni aytamanki: Eftaliylar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, O'z qonuniy (adolatli) davlatchiligiga egadir. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat meyorini saqlashda vizantiyalik va forslardan hech bir qolishmaydilar. Eftaliylar davlatida kengashning ham mavjudligi, taxtning otadan bolaga emas balki o'sha kengashning eng yoshi ulug' a'zolaridan tayinlanish tartibi ham davlatchilikning mukammal darajada yuksalganligidan dalolat beradi. Takidlab o'tish joizki, Eftaliylar davlatining bu turdagi boshqaruv tartibi, o'zbek davlatchiligi tarixida ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sagdullayev A, va bosliqlar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti- T., "Akademiya", 2000
2. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. Tuzuvchi Zohid A'lam. T. 2008
3. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T., Fan, 1968
4. A.Xo'jayev, K.Xo'jayev. Qadimgi manbalarda xalqimiz o'tmishi. T., Ma'naviyat, 2001

³⁸ A.Xo'jayev, K.Xo'jayev. Qadimgi manbalarda xalqimiz o'tmishi. T., Ma'naviyat, 2001